

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12 Fil.03.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

KARIMOVA GULNOZA DAVRONOVNA

**MILLIY TELEVIDENIYE FAOLIYATINING GENDEROLOGIYA
KESIMIDA DISKURSIV TAHLILI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Karimova Gulnoza Davronovna

Milliy televideniye faoliyatining genderologiya kesimida diskursiv
tahlili..... 3

Каримова Гулноза Давроновна

Дискурсивный анализ деятельности национального телевидения с
точки зрения гендерных исследований..... 25

Karimova Gulnoza Davronovna

Discursive analysis of national television activities from the perspective of
gender studies..... 51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 56

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12 Fil.03.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

KARIMOVA GULNOZA DAVRONOVNA

**MILLIY TELEVIDENIYE FAOLIYATINING GENDEROLOGIYA
KESIMIDA DISKURSIV TAHLILI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3639 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.uzjoku.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Akbarov Hamidulla Ilyasovich filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Muratova Nozima Faxritdinovna filologiya fanlari doktori, dotsent Boymirzayeva Saodat Urakovna filologiya fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12 Fil.03.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel.: (+99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel.: (+99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil "___" _____ dagi ___ - raqamli reyestr bayonnomasi)

Sherzodxon Qudratxo'ja
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, s.f.d. (DSc), professor

Alijon Safarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.d. (DSc), dotsent

Nozima Muratova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d.
(DSc), dotsent

KIRISH
(Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv sharoitida gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotida dolzarb ahamiyatga ega. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab gender munosabatlari jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim ijtimoiy muammo sifatida qator ilmiy tadqiqotlarda aks eta boshladi. Xususan, media tadqiqotlarida gender diskursini tahlil qilishga oid nazariy yondashuvlarni tizimlashtirish, televizion kontentda gender stereotiplari va diskursiv og'ishlarni tanqidiy o'rganish, genderni asoslangan zo'ravonlik bilan bog'liq holatlarning yoritilishida uchraydigan jurnalistik xatolar hamda kasbiy kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, gender masalalarining media makonida qanday ifodalanishi va ularning auditoriya ongiga ta'sirini o'rganish xalqaro amaliyotda olib borilayotgan dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ommaviy axborot vositalarida gender diskursining shakllanishi va rivojlanishi, mediakontent orqali ijtimoiy stereotiplar hamda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ko'rsatilayotgan ta'sir, mediada gender stereotiplarining shakllanishi va reproduksiyasi hamda uning ta'siri ostida jamiyatda gender tengligi haqidagi tasavvurlarning shakllanish jarayonlari, shuningdek mediada genderni asoslangan zo'ravonlik holatlarining yoritilishi kabi masalalar doirasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan gender diskursining ommaviy kommunikatsiya vositalarida, xususan, televideniye kontentida qanday shakllanishi va namoyon bo'lishini tahlil qilish jamiyatda gender tengligi haqidagi ijtimoiy tasavvurlarni anglash, shuningdek, mediada ushbu masalaning yoritilish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. "...Xotin-qizlarning huquq va manfaatini ta'minlash, muammolarini hal qilish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratdik. Barcha qonun, farmon va qarorlarni qabul qilishda gender masalasi bo'yicha huquqiy mexanizmlar joriy etildi. Endi xotin-qizlarning huquq va manfaatlariga ta'siri baholanmay turib birorta qonun qabul qilinmaydi"¹. Shu nuqtai nazardan milliy media makonida gender masalalarining qanday yoritilayotgani, televideniya gender obrazlarining shakllanish xususiyatlari hamda media diskursining gender tengligi tamoyillariga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish zarurati kuchaymoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida", "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida", "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada

¹ Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // president.uz, 06.03.2026. – <https://president.uz/oz/lists/view/9002>

takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi Qonunlari, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy-huquqiy choralari to‘g‘risida”gi Farmoni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 192-son hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4-son qarorlarida ko‘rsatilgan maqsad vazifalar ijrosini ta‘minlashda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari”ning ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda gender tengligining mediada aks etishi, televideniyaning tarixi, o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq qator tadqiqotlar Y.Mamatova, S. Sulaymanova, N. Qosimova, N. Muratova, G.Zokirovalar, H.Akbarov, A.Karimov, P.Allamberganova, Y.Artiqova, I.Rahmatullaeva, F.Fayzieva, T.Axmedov, Y.Zohidova, Z.Abdullaeva tomonidan olib borilgan².

MDH mamlakatlari ilmiy adabiyotlarida gender masalalarini OAV, xususan televideniye bilan bog‘liq holda o‘rgangan tadqiqotlar ham uchrab, ularda turli janr va formatlardagi media mahsulotlar tahlil qilingan bo‘lib, Rygina, Mayevskaya,

² Mamatova Y., Sulaymanova S. Oltin o‘rtalik sari: O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarida gender munosabatlari. –T.: Extremum press, 2016. – 80 b. Qosimova N., Alimova N. Gender va media. –T.: Ba‘ez, 2022.136 b. Muratova N., Elton Grizl, Mirzaxmedova D. Журналистикада медиа ва ахборот саводхонлиги.– T.: Бактрия пресс, 2019. – 112 б. Закирова Г. Ўзбекистон матбуотида хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллиги масалаларининг ёритилиши (босма ва интернет нашрлари 2014-2020 йй.).фил.фан.фал.док.(PhD)...дисс. –Т.,2020. Акбаров Х. Кино-теледраматургия: назария ва амалиёт. –Т.: Илм зиё, 2006; Акбаров Х. Кино-телережиссура монтаж. –Т.: Илм зиё, 2007; Каримов А. Рекреативлик – замонавий журналистиканинг глобал қонунияти сифатида: миллий ва халқаро тажриба. Фил. фан. док (DSc)...дисс. – Т., 2022. – 230 б.; Файzieva Ф.Ўзбекистон бадиий телевидениесининг шаклланиши (1956-2000 йй). Санъат.фан.ном.дисс... –Т., 2009; Ахмедов Т. Ўзбекистонда телевидениенинг ривожланиш жараёни ва унинг аҳоли ижтимоий-маданий ҳаётидаги ўрни (1991-2016 йй). Тар.фан.фалс.док (PhD) дисс... –Т.: ЖДПИ, 2019; Раҳмагуллаева И. Ўзбекистон телевидениесида ёшлар кўрсатувлари (бадиий маҳорат муаммолари). Санъат.фан.ном.дисс... –Т., 2007; Алламбергенова П. Қорақалпоғистон телевидениеси эволюцияси ва замонавий тенденциялар. Фил. фан. док. (DSc) дисс... –Т., 2024. Артикова Ю. Интерактив тележурналистиканинг назарий асослари ва тараққиёт тенденциялари.фил.фан.доктори...дисс. –Т.,2024; Zohidova Yu. Televideniye va shaxs: teyanganliklarda boshlovchining o‘rni (ijtimoiy vaziyat, jurnalist pozitsiyasi va mahorat masalalari). Monografiya. – T.: Mumtoz so‘z, 2022. Абдуллаева З. Телевизион журналистикада вербал ва визуал коммуникацияларнинг таркиби, хусусиятлари, ўзаро муносабатлари. Фил.фан.фалс.док (PhD) дисс...- Т.,2024.

Borzova, O. Shemiakin kabi mualliflarning olib borgan tadqiqotlarida gender muammolari fanlararo yondashuv asosida o'rganilgan³.

Xorijda genderni ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qiluvchi nazariy qarashlar, ommaviy axborot vositalarida gender masalalarining yoritilishi, gender obrazlari va stereotiplarining shakllanishi hamda tanqidiy diskurs tahlili yondashuvi asosida gender muammolari J. Butler, R. Connell, J. Scott, N. Ferklof, T. van Deyk, R. Vodak, Xiaodong Feng, Yu-Hao Lee, Allison Master, Tomai Manuela, Yorgos C. Zotos, Karin Romero Ruiz, Jing Lu, Tong Zhang, Karl Kaser, Ronald Inglehart, Carmen Diana Deere, Michelle Lokot, Husayin Haydari, Nurzihan Hassim, F. Pinar Acar kabilar tomonidan o'rganilgan⁴.

Gender masalalari o'zbek media makoni doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, biroq uning kommunikativ xususiyatlari, media diskursda gender masalalarining reprezentatsiyasi hamda jurnalistik diskurs orqali gender muammolarining yoritilishi alohida tadqiqot obyekti sifatida ilmiy tahlilga tortilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy zaruratini belgilaydi.

³ Рыгина, Лика Сергеевна. [Производство гендерного дискурса в поле региональной журналистики](https://www.dissercat.com/content/proizvodstvo-gendernogo-diskursa-v-pole-regionalnoi-zhurnalistiki) 2006. <https://www.dissercat.com/content/proizvodstvo-gendernogo-diskursa-v-pole-regionalnoi-zhurnalistiki> Смеюха, Виктория Вячеславовна. Феномен гендерной идентификации в медийном пространстве: на материале отечественных женских журналов. <https://www.dissercat.com/content/fenomen-gendernoi-identifikatsii-v-mediinom-prostranstve-na-materiale-otechestvennykh-zhenskikh-zhurnalov> Маевская, Марина Игоревна. Культура гендерных отношений в программах российского телевидения: Социально-филологический анализ. <https://www.dissercat.com/content/kultura-gendernyx-otnoshenii-v-programmax-rossiiskogo-televideniya-sotsialno-filologichesk> Борзова, Марианна Вячеславовна. Социокультурный анализ конструктов феминности и маскулинности в гендерно-ориентированных текстах СМИ. <https://www.dissercat.com/content/sotsiokulturnyi-analiz-konstruktov-feminnosti-i-maskulinnosti-v-genderno-orientirovannykh-te>.

⁴ Connell R. Gender and Power. — Stanford: Stanford University Press, 2002; Butler J. Gender Trouble. — New York: Routledge, 1990. Fairclough N. Critical Discourse Analysis. — London: Longman, 1995; Van Dijk T. Discourse and Power. — New York: Palgrave Macmillan, 2008; Wodak R. Gender and Discourse. — London: Sage, 1997. Xiadong Feng, Jie Xiong, Zhiwei Tang. To be rational or sensitive? The gender difference in how textual environment cue and personal characteristics influence the sentiment expression on social media. <https://doi.org/10.1016/j.tele.2023.101971> Allison Master, Daijiazi Tang and others. Gender equity and motivational readiness for computational thinking in early childhood. Early Childhood Research Quarterly 64 (2023) 242-254 <https://doi.org/10.1016/j.ecresq.2023.03004> Yu-Hao Lee, Chien Wen (Tina) Yuan. I'm not a puppet, I'm a real boy! Gender presentations by virtual influencers and how they are received. The comparison of the effect of virtual and face – to – face environments in the decision making of men and women. Computers in Human Behavior 149 (2023) 107927 <http://doi.org/10.1016/j.chb.2023.107927>. Yorgos C. Zotos, Eirini Tsihla. Female stereotypes in Print Advertising: A Retrospective Analysis. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.07.064> Female Stereotypes in Print Advertising: A Retrospective Analysis. Proc Tomae Manuela and others. Can computer supported collaborative learning (CSCL) promote counter-stereotypical gender communication styles in male and female university students? Procedia – Social and Behavioral Sciences 116 (2014) 4384 – 4392 <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.01.952> Media Social and Behavior Sciences 148 (2014) 446 – 454 <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.07.064> Hossien Heydari, Fateme Bagherian and others. The comparison of the effect of virtual and face – to – face environments in the decision making of men and women. Procedia Social and Behavior Sciences 15 (2011) 2431-2434 <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2011.04.122>. Nurzihan Hassim. Hijab and the Malay-Muslim Women in Media. The International Conference on Communication and Media. 2014 (i-COME'14), 18-20 October 2014, Langkawi, MALAYSIA. F. Pinar Acar. Gender Differences in Promotions to Top level Management Positions: An Examination of Glass Cliff in the IT Sector. 4th International Conference on Leadership, Technology, Innovation and Business Management. <https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/> Karin Romero-Ruiz and others. Information and communication technologies impact on family relationship. 7th International Conference on Intercultural Education "Education, Health and ICT for a Transcultural World", EDUHEM 2016, 15-17 June 2016, Almeria, Spain. <https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/> Jing Lu, Qinglan Xiao, Taoxuan Wang. Does the digital economy generate a gender dividend for female employment? Evidence from China. Telecommunications Policy 47 (2023) 102545 <https://doi.org/10.1016/j.telpol.2023.102545>. Tong Zhang, Kaiyuan Zhou. Fun young ladies – Modern feminism and China's stand-up comedy. Women's Studies International Forum 99 (2023) 102788 <https://doi.org/10.1016/j.wsif.2023.102788> Gender equality for sustainable development: Analysis of local journalists' role in Bangladesh. Telematics and Informatics 80 (2023) 101971.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Mass-media nazariyalari, tarixi va istiqbolining dolzarb muammolari" amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi milliy telejurnalistikada gender masalalarining yoritilishi bo'yicha shakllangan mavjud holatni hamda telemahsulotlarda gender obrazlarining diskursiv xususiyatlarini tahlil qilish, ushbu jarayonda xalqaro gender va media standartlariga rioya etilish darajasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

– gender munosabatlari va gender tengligi masalasining nazariy-metodologik asoslarini, shuningdek, media tadqiqotlarida gender diskursi tahliliga oid ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirish;

– O'zbekiston televideniyesida gender masalalarining shakllanish jarayonini tarixiy va media-sotsiologik omillar asosida tahlil qilish;

– 2019–2025 yillar davomida davlat va xususiy telekanallarda gender reprezentatsiyasining asosiy yo'nalishlari, tafovut va mushtarak jihatlarini aniqlash;

– televizion kontentda gender stereotiplari va diskursiv og'ishlarni tanqidiy diskurs tahlili (CDA - Critical Discourse Analysis)⁵ asosida o'rganish;

– genderga asoslangan zo'ravonlik bilan bog'liq holatlarning televideniya yoritilishida jurnalistik xatolar va kasbiy kamchiliklarni aniqlash;

Tadqiqotning obykti sifatida O'zbekistonning davlat telekanallari — "O'zbekiston", "O'zbekiston 24", "Yoshlar", "Toshkent", "Madaniyat va ma'rifat", "O'zbekiston tarixi", "Mahalla" hamda xususiy telekanallar — "Sevimli TV", "Milliy TV", "Mening yurtim (MY5)" va ularda efirga uzatilayotgan axboriy, tahliliy, badiiy va ko'ngilochar ko'rsatuvlar majmuasida 2019–2025 yillar davomida shakllangan gender diskursi hamda gender masalalarining yoritilish amaliyoti belgilangan.

Tadqiqotning predmetini milliy telekanallar telemahsulotlarida gender obrazlarining shakllanish mexanizmlari — ya'ni televizion matn, diskursiv strategiyalar va audiovizual ifoda vositalari orqali ayol va erkak timsollarining ijtimoiy ma'no hamda rollar sifatida qurilishi jarayonlari, telejurnalistikada gender stereotiplarining namoyon bo'lish shakllari hamda jurnalistlarning gender savodxonligi bilan bog'liq kasbiy amaliyotlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari mediamatn tahlili, qiyosiy-tahliliy usul, kontent tahlili hamda tanqidiy diskurs tahlili, shuningdek empirik ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirish maqsadida sotsiologik tadqiqot usullari — anketa so'rovnomalari, kuzatuv va keys-tahlil qo'llanishiga asoslangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

– milliy telekanallardagi ayol va erkak obrazlarining qurilishi tanqidiy diskurs tahlili asosida o'rganilib, gender stereotiplarining til, vizual obraz, janr va syujet

⁵ Critical Discourse Analysis (CDA) — tanqidiy diskurs tahlili bo'lib, diskursni ijtimoiy amaliyot shakli sifatida o'rganadi va unda til orqali hokimiyat munosabatlari, ideologiya va ijtimoiy tengsizlik qanday ifodalanishi va qayta ishlab chiqilishini tahlil qiladi (Fairclough, 1995; van Dijk, 1998; Wodak, 2001).

orqali qayta ishlab chiqarilishi hamda ularning mediakontentda takroriy reprezentatsiyasi orqali auditoriya ongida ijtimoiy norma sifatida mustahkamlanishiga olib keluvchi diskursiv-normallashtirish mexanizmi dalillangan;

– milliy televideniya gender tengligi g‘oyalari axboriy va tahliliy janrlarda deklarativ tarzda ilgari surilishi bilan birga, teleserial, telenovella va ko‘ngilochar dasturlarda an‘anaviy gender rollari ustuvorligining saqlanib qolishi natijasida yuzaga keladigan janrlararo diskursiv nomuvofiqlik modeli aniqlanib, gender diskursida ichki ziddiyatlarning tizimli xarakteri asoslangan;

– milliy televideniya gender masalalarini yoritishning amaldagi holati tahlili asosida mediakontentni baholash mezonlari, diskursiv indikatorlar va audiovizual ifoda vositalarini nazarda tutuvchi gender sezgir televideniya modeli ishlab chiqilib, uning mediakontent orqali gender munosabatlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy konseptual asos ekani isbotlangan;

– genderni asoslangan zo‘ravonlik sahnalari mavjud telemahsulotlarda “genderni asoslangan zo‘ravonlik qonun bilan ta‘qib qilinadi” mazmunidagi statik ogohlantiruvchi belgilarni joriy etish orqali auditoriyada huquqiy ong va gender sezgirlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan profilaktik media-ta‘sir mexanizmi ishlab chiqilib, uning samaradorligi ilmiy jihatdan dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot jarayonida O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi davlat va xususiy telekanallar faoliyati ilk bor gender nuqtai nazaridan tizimli ilmiy tahlil etildi. Telekanallar gender muvozanati nuqtai nazaridan ham tashkiliy subyekt (kadrlar tarkibidagi gender nisbati), ham ijodiy subyekt (efirga uzatilayotgan telemahsulotlar mazmuni) sifatida kompleks o‘rganilgan.

gender masalalarini yoritishda telejurnalistlar va auditoriya munosabatini aniqlash maqsadida manzilli so‘rovnoma o‘tkazildi. Shu so‘rovnoma asosida telejurnalistlarning hamda teletomoshabinlarning gender masalalariga munosabati tahlil qilindi. Tahrir siyosatidagi ustuvorliklar, efir tayyorlashdagi yondashuvlar hamda auditoriyaning genderni oid teledasturlarga munosabati o‘rganilgan.

ommaviy axborot platformalari va talabalar ishtirokidagi tadbirlarda tadqiqotning asosiy natijalari amaliyotga tatbiq etildi. Xususan, “O‘zbekiston tarixi” va “Zo‘rTV” telekanallari dasturlarida, shuningdek “Hudud24” YouTube kanali uchun berilgan intervyularda tadqiqot xulosalari yoritildi. Yosh jurnalistlar uchun Yangi media ta‘lim markazi tomonidan tashkil etilgan seminarda ikki kunlik ma‘ruza bilan ishtirok etildi va taqdimotlar o‘tkazilgan.

“DW Group”ning “Tabassum” loyihasi doirasida O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabalari uchun maxsus seminar tashkil etildi. Seminar davomida tadqiqot natijalari asosida ma‘ruza va taqdimotlar o‘tkazilib, BMT Ayollar masalalari bo‘yicha O‘zbekistondagi vakili Nozima Malikova bilan “O‘zbekistonda ayollar va media” mavzusida rasmiy intervyu uyushtirildi. Unda tadqiqotning dolzarb ilmiy-amaliy jihatlari muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot faktlarga, tashkilotlarning kadrlar bo‘limlari va xodimlari taqdim etgan ma‘lumotlarga, telekanallarining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifasida e‘lon qilingan materiallar va real efir vaqtida namoyish etilgan dasturlar tahliliga asoslandi. Teledasturlarning

genderologiya nuqtai nazaridan yutuq va kamchiliklarini o'lchash mezonlari xalqaro va milliy tadqiqotlar natijalariga asosan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqotda televideniye sohasiga doir gender tadqiqotlarining jahon va milliy miqyosdagi ilmiy yutuqlari umumlashtirildi. Kuzatuvlar asosida to'plangan empirik materiallar tahlili orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi. Tadqiqot natijalari joriy media muhitda gender masalalarini yoritishdagi holatni baholashga hamda telejurnalistika amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladigan taklif va tavsiyalarni qamrab oladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Milliy televideniye faoliyatining genderologiya kesimida diskursiv tahlili tadqiqoti bo'yicha olingan natijalar asosida:

milliy telemahsulotlarda gender stereotiplarining shakllanishi, ularning mediakontent orqali takroriy reprezentatsiyasi hamda auditoriya ongida ijtimoiy norma sifatida mustahkamlanish mexanizmlariga, shuningdek turli janrlarda gender diskursining nomuvofiqligi va ichki ziddiyatlariga oid ilmiy xulosalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Yodnoma" ko'rsatuvi, "Zo'rTV" telekanalining "O'zimizda" tok-shousi, "Mahalla" telekanalining "Minbar" tok-shousi hamda "Hudud24" YouTube kanali media materiallarini tayyorlash jarayonida foydalanilgan (*"O'zbekiston teleradiokanali" DMning 2023-yil 20-sentyabrdagi 02-06-1420-son hamda "Mahalla" teleradiokanali DMning 2026-yil 10-martdagi 01-16-49-son ma'lumotnomalari*). Natijada telemahsulotlarda ayol va erkak obrazlarini ifodalashda stereotipik yondashuvlarni kamaytirish, gender masalalarini yoritishda janrlararo muvofiqlikni ta'minlash hamda mediakontentda ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar joriy etilgan;

milliy televideniya gender sezgir televideniye modeliga oid ilmiy-amaliy tavsiyalardan Yangi media ta'lim markazi tomonidan amalga oshirilgan "Study Project Women Empowerment" loyihasi doirasida hamda jurnalistlar uchun tashkil etilgan o'quv-amaliy seminar va treninglarda foydalanilgan (*Yangi media ta'lim markazining 2024-yil 16-sentyabrdagi 22-son ma'lumotnomasi*). Natijada mediakontentni gender sezgirlik asosida baholash mezonlari takomillashtirilib, jurnalistlarning gender savodxonligini oshirish hamda gender masalalarini mas'uliyatli yoritish bo'yicha amaliy ko'nikmalari shakllantirilgan;

milliy mediamakonda ayol obrazining mediarepresentatsiyasi, xususan, ayollarning stereotipik obrazlarini shakllantirish muammolari hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy xulosalar va takliflardan O'zbekiston Milliy media birlashmasi tomonidan 2024-yil 3-may kuni o'tkazilgan "Milliy media mahsulotlar yaratishda ayollar siymosi" mavzusidagi xalqaro konferensiyani tashkil etishda hamda Ayollar media klubi dasturini ishlab chiqishda, shuningdek Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi hamda "Search for Common Ground" xalqaro tashkiloti hamkorligida amalga oshirilgan "SHE LEADS" loyihasi doirasida foydalanilgan (*O'zbekiston Milliy media birlashmasining 2024-yil 13-martdagi 01-02/748-son hamda Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondining 2024-yil 13-sentyabrdagi 98-m-24-son ma'lumotnomalari*). Natijada milliy telekanallarda gender masalalarini

yoritishda ayol obrazining stereotipik talqinlarini kamaytirish, mediakontentda gender muvozanatini ta'minlash hamda ayollar siymosini ijtimoiy faol subyekt sifatida aks ettirishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Genderga asoslangan zo'ravonlik sahnalari mavjud telemahsulotlarda ogohlantiruvchi belgilarni joriy etish orqali auditoriyaning huquqiy va gender savodxonligini oshirishga qaratilgan profilaktik media mexanizmga oid ilmiy xulosalardan BMTning O'zbekistondagi "UN Women" tashkiloti tomonidan tayyorlangan O'zbekistonning Gender tengligi bo'yicha mamlakat profili (*Country Gender Equality Profile*) tahliliy hujjatini ishlab chiqish jarayonida foydalanilgan (*UN Women Uzbekistan'ning 2026-yil 10-martdagi ID: 91D1D80B-8118-4CE5-B0D8-BC611D9EDFC5-son ma'lumotnomasi*). Natijada genderga asoslangan zo'ravonlikni yoritishda profilaktik media yondashuvlarning ahamiyati asoslangan hamda medianing gender tengligini ta'minlashdagi roli ilmiy jihatdan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shundan 5 tasi tezis, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 135 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi, uni respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusi bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Genderning media kontekstidagi nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida gender tushunchasining nazariy mohiyati, uning shakllanish mexanizmlari, gender diskursining metodologik asoslari, mediada gender reprezentatsiyasiga oid xalqaro va milliy ilmiy qarashlar hamda gender tasavvurlarining madaniy-tarixiy ildizlari kompleks tarzda tahlil qilingan.

"Equal Measures" xalqaro koalitsiyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, mavjud ijtimoiy tendensiyalar saqlanib qolgan taqdirda, global miqyosda gender tengligiga hatto XXII asrga qadar ham to'liq erishilmasligi

mumkin⁶. Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ishlab chiqilgan 2024-yilgi Gender indeksi 139 mamlakatni qamrab olgan bo‘lib, bu dunyodagi xotin-qizlar aholisining taxminan 96 foizini tashkil etadi⁷. Bu ko‘rsatkich natijalari gender tengligi masalasini turli sohalarda chuqur tadqiq etish zaruratini ko‘rsatadi.

Tahlillarga ko‘ra, 2019-2022 yillar oralig‘ida dunyodagi mamlakatlarning deyarli 40%ida (ular da yashovchi xotin-qizlar soni 1,1 milliarddan ortiq) gender tenglik darajasi pasaygan yoki turg‘unlik holati aniqlangan⁸. Ushbu mamlakatlardagi xotin-qizlarning soni 1,1 milliarddan ortiq ekanini hisobga olsak, demak gender masalasidagi inqiroz faqatgina lokal emas, balki global hamdir. Bunday sharoitda gender munosabatlarini media reprezentatsiyasi, ijtimoiy stereotiplar va diskursiv amaliyotlar hosilasi sifatida tadqiq etish o‘zbek media makoni uchun ham muhim.

O‘zbekiston, 2023-yil holatiga ko‘ra, ochiq gender ma’lumotlar indeksida eng yaxshi 20 ta davlat orasidan joy olgani ushbu holat mamlakatning gender tengligi sohasidagi faoliyatini xalqaro mezonlar bo‘yicha yuqori o‘rin egallashini ko‘rsatadi⁹. Jahon banki ekspertlarining “O‘zbekiston: mamlakatdagi gender holatni baholash” hisobotida aytilishicha, xotin-qizlar mamlakat iqtisodiy hayotida erkaklar bilan teng ishtirok eta olsa, O‘zbekiston yalpi milliy daromadi taxminan 29% ga oshishi mumkin¹⁰. Bu kabi ko‘rsatkichlar mamlakat yalpi ichki mahsulotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi va ijtimoiy tenglikni kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Gender tushunchasini milliy ilmiy va ma’rifiy miqyosda mustahkamlash masalasi ham muhim. Xususan, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasining so‘nggi nashlarida “gender” atamasi mustaqil termin sifatida kiritilmagani kuzatiladi, bunda asosan “jins” tushunchasiga biologik-ma’naviy yo‘sinda ta’rif beriladi¹¹. Bu holat genderning ijtimoiy-konstruktiv, madaniy va diskursiv qirralari milliy ensiklopedik bilim tizimida hanuz to‘liq aks etmaganini ko‘rsatadi. Genderni tushuntiruvchi zamonaviy ilmiy yondashuvlarni milliy madaniy kontekstga moslashtirgan holda qo‘llash, xususan, milliy televideniye diskursi tahlili orqali mazkur tushunchaning ijtimoiy ongda qanday shakllanayotganini ochib berish biz uchun muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Bobning “*Global va milliy miqyosda gender reprezentatsiyasi: xorijiy va mahalliy tadqiqotlar sharhi*” deb nomlangan ikkinchi faslida gender va media munosabatlarini o‘rganishga oid xalqaro va milliy ilmiy tadqiqotlar tizimli ravishda tahlil qilingan. Xususan, xalqaro ilmiy maktablarda media gender ma’nolarini ishlab chiqaruvchi diskursiv institut sifatida talqin qilinishi, televideniye orqali gender stereotiplari, ijtimoiy rollar va ideologik

⁶ Equal Measures 2030. Gender Equality: Progress, Challenges and Projections. — New York: Equal Measures 2030 Coalition, UN Women, UNDP, 2023.

⁷ UN Women. Progress on the Sustainable Development Goals: The Gender Snapshot 2024. — New York: United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women, 2024.

⁸ United Nations. The Gender Gap in a Time of Crisis. — UN Policy Brief, 2023.

⁹ Ўзбекистон очик гендер маълумотлар индексига кўра энг яхши 20 та давлат орасидан жой олди // Kun.uz/ - 2023.29 декабрь. — URL: [ltrf,hm,https://kun.uz/kr/news/2023/12/29/uzbekiston-ochiq-gender-malumatlar-indeksida-eng-yaxshi-20-ta-mamlakat-orasidan-joy-ol-di](https://kun.uz/kr/news/2023/12/29/uzbekiston-ochiq-gender-malumatlar-indeksida-eng-yaxshi-20-ta-mamlakat-orasidan-joy-ol-di) Murojaat sanasi: 20.11.2024.

¹⁰ World Bank Country Gender Assessment Report: Uzbekistan // The World Bank. — 2024. 17 June. — URL: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/country-gender-assessment-2024> Murojaat sanasi: 10.10.2024.

¹¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. — Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2000–2006. — “Жинс” маколasi (нашрда “гендер” атамаси мустақил илмий термин сифатида алоҳида келтирилмаган). Электрон манба: <http://n.ziyouz.com/kutubxona/category/15-uzbekiston-milliy-ensiklopediyasi>

modellar shakllanishi ilmiy jihatdan asoslanganligi aniqlangan. Milliy tadqiqotlar tahlili asosida esa O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarida gender masalalari muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lsada, aynan milliy televideniye diskursida gender reprezentatsiyasining lingvistik, vizual va diskursiv xususiyatlari alohida kompleks tadqiq etilmaganligi aniqlanib, mazkur yo‘nalishda maxsus ilmiy tadqiqot olib borish zarurati asoslab berilgan.

Zamonaviy G‘arb tadqiqotlarida yana bir muhim tendensiya — genderni faqat ayollar muammosi doirasida emas, balki maskulinlik, identifikatsiya va ijtimoiy rollar tizimi nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilishdir. Bunda femininlik va maskulinlikning mediada qanday konstrutsiyalanayotgani, qaysi obrazlar “muvaffaqiyatli” va “ijtimoiy jihatdan maqbul” sifatida ko‘rsatilayotgani, qaysilari esa marginallashtirilayotgani (chetga surilayotgani) alohida o‘rganiladi. Mazkur yondashuv mediani neytral axborot vositasi emas, balki ideologik maydon va ma’no ishlab chiqaruvchi diskursiv muhit sifatida baholash imkonini beradi. G‘arb tadqiqotlarida media ko‘pincha gender ma’nolarini shakllantiruvchi universal madaniy mexanizm sifatida talqin etilsa, Rossiya va MDH mamlakatlarida olib borilgan ishlar televideniye jamiyatning tarixiy, ijtimoiy va ideologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda tahlil qiladi. Bu maktab doirasida genderning media orqali qanday ishlab chiqarilayotgani, qayta konstrutsiyalanayotgani va jamoatchilik ongiga qanday singdirilayotgani markaziy tadqiqot obyekti sifatida ko‘riladi. O‘zbekistonda esa gender masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar so‘nggi o‘n yilliklarda turli fan sohalari doirasida faol rivojlanib bormoqda. Bobning *“Madaniy-tarixiy gender tasavvurlari va ularning televideniye diskursida qayta ishlab chiqilishi”* deb nomlangan uchinchi faslida O‘zbek jamiyatida gender tasavvurlarining shakllanishi tarixiy, diniy va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanishi ochib berilgan. Milliy televideniye ana shu an’anaviy gender modellarini zamonaviy media formatlari orqali qayta ishlab chiqaruvchi va transformatsiya qiluvchi ijtimoiy-kommunikativ maydon sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslangan. Natijada televideniye gender diskursi jamiyatdagi gender stereotiplarini nafaqat aks ettiruvchi, balki ularni shakllantiruvchi va legitiqlashtiruvchi muhim diskursiv mexanizm ekanligi haqidagi ilmiy-nazariy xulosa ishlab chiqilgan.

Televideniye an’anaviy madaniy kodlarni vizual va verbal shaklda qayta talqin qilish imkoniyatiga ega. Tarixiy manbalarda, jumladan folklor, xalq dostonlari va jadid matbuotida ayol obrazi faqat maishiy doira bilan cheklanmay, balki ijtimoiy hayotda faol, yetuk shaxs sifatida namoyon bo‘lgan: malikalar davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etgan, dostonlarda ayollar mustaqil qaror qabul qiluvchi obrazda tasvirlangan, jadidlar esa ularning ta’limli va ijtimoiy faol bo‘lishini qo‘llab-quvvatlagan. Biroq zamonaviy televizion kontentda ushbu tarixiy va ma’rifiy g‘oyalar qisman aks etgan holda, ayol ko‘proq oila va maishiy muhit bilan bog‘langan obrazda ifodalanmoqda, erkak esa asosan ijtimoiy faollik va yetakchilik bilan uyg‘unlashtiriladi. Bu esa televideniye diskursida tarixiy merosning to‘liq emas, balki selektiv tarzda qayta ishlab chiqilayotganini ko‘rsatadi.

Televideniye diskursida gender masalasining o‘ziga xos jihati shundaki, u bir vaqtning o‘zida ham normativ, ham targ‘ibotchi funksiyani bajaradi. Bir

tomondan, u jamiyatda mavjud bo'lgan madaniy tasavvurlarni "norma" sifatida mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan esa yangi ijtimoiy rol va modellarni legitimlashtiradi. Shu sababli televideniya gender reprezentatsiyasi har doim murakkab va qarama-qarshi jarayon sifatida namoyon bo'ladi: ayrim dasturlarda stereotiplar qayta ishlab chiqarilsa, boshqalarida esa ularga nisbatan tanqidiy munosabat bildiriladi.

Dissertatsiyaning "*Milliy televideniya gender diskursining shakllanish omillari (2019-2025)*" deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston televideniyesida gender masalasining shakllanishi tarixiy, siyosiy, institutsional va media-sotsiologik omillar kontekstida kompleks tahlil qilingan, shuningdek, davlat va xususiy telekanallarda gender reprezentatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari hamda teledasturlar janrlari kesimida gender obrazlarining shakllanish mexanizmlari empirik materiallar asosida o'rganilgan. Bobning birinchi faslida O'zbekiston televideniyesida gender diskursining shakllanishi tarixiy jarayon sifatida tahlil qilinib, sovet davrida ayol obrazi "mehnatkash va ona" modeli asosida konstruksiya qilingani, mustaqillikdan keyingi davrda esa milliy qadriyatlar asosidagi an'anaviy gender rollari ustuvorlik qilgani aniqlangan. 2019-yildan keyin gender tengligiga oid qonunlar va milliy strategiyalarning qabul qilinishi natijasida gender masalasi televideniye diskursida mustaqil ijtimoiy kategoriya sifatida shakllana boshlagani asoslangan.

O'zbek televideniyesining shakllanish davrida, xususan XX asrning ikkinchi yarmida efir kontenti asosan davlat mafkurasiga xizmat qilgan. Bu davrda ayol obrazi, avvalo, mehnatkash, jamoatchilikka foyda keltiruvchi, shu bilan birga oilaviy vazifalarni bajaruvchi shaxs sifatida tasvirlangan. Bunday gender rollari sovet mafkurasining "tenglik" g'oyasi bilan uyg'un bo'lsa-da, amalda bu tenglik konsepsiyasi ayollarning gender manfaatlarini to'laqonli ifoda etmagan. Davlat diskursida ayol, avvalo, sotsialistik qurilishning faol ishtirokchisi, mehnatkash va jamoatchilikka foyda keltiruvchi subyekt sifatida namoyon qilingan. Shu bilan birga, unga an'anaviy oilaviy vazifalar — ona, tarbiyachi va ro'zg'or yurituvchi rollari ham yuklatilgan. Natijada "tenglik" amalda ikki karra yuklama (ishlab chiqarish va uy mehnati) modeliga aylangan.

1991-yildan keyin, ya'ni O'zbekiston mustaqillikka erishgach, televideniye kontentida milliy qadriyatlar va an'analarni tiklashga qaratilgan yo'nalish kuchaydi. Bu jarayon gender tasavvurlariga ham ta'sir ko'rsatdi. Ilk yillarda ayol obrazi, asosan, milliylik, ona timsoli va oilaviy barqarorlik orqali ifodalanib, madaniy-ma'naviy kontekstda talqin qilindi. Televideniya ayol ko'proq tarbiyachi, uy bekasi va oila saqlovchisi sifatida tasvirlangan bo'lsa, erkak obrazi oila boshlig'i va ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan shaxs sifatida namoyon etildi. Bu holat milliy efir makonida gender rollarining an'anaviy modelini mustahkamladi. Shu bilan birga, xotin-qizlar mavzusiga bag'ishlangan maxsus ko'rsatuvlar ("Farishtam", "Begoyim", "Azizim") paydo bo'lib, ayollar hayoti ma'rifiy-tarbiyaviy va maishiy yo'nalishda yoritildi.

2000-yillardan boshlab milliy televideniya janrlar xilma-xillashdi, tok-shoular va ijtimoiy-ma'rifiy dasturlar soni ortdi. Biroq bu davrda ham gender masalasi mustaqil ijtimoiy muammo sifatida emas, balki oila, ma'naviyat va ijtimoiy himoya doirasida talqin qilindi. Aslida, mamlakat xalqaro miqyosda xotin-

qizlar huquqlariga oid majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan (jumladan, 1995–1996 yillarda CEDAWga qo'shilish orqali) va bu borada ba'zi islohotlar amalga oshirilgan, jumladan, akademik sohada ham tadqiqotlar yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, "gender" atamasi efir diskursida deyarli qo'llanilmadi. Ayollar muammolari ko'proq an'anaviy qadriyatlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mavzulari bilan bog'lab yoritildi.

Gender masalasining televideniye diskursida qanday shakllanishini tushunish uchun formatlar va yo'nalishlar o'rtasidagi farqni inobatga olish zarur. Xususan, axboriy yo'nalish ustuvor bo'lgan telekanallarda gender, odatda, rasmiy va neytral diskurs doirasida ifodalanadi. Bunday formatlarda erkaklar va ayollar ijtimoiy subyekt sifatida ko'proq kasbiy maqom, lavozim yoki rasmiy pozitsiya orqali namoyon bo'ladi. Gender farqi ochiq ta'kidlanmasada, boshlovchilar, suhbatdoshlar, ekspertlar va qahramonlarning jinsiy tarkibi orqali auditoriyada ma'lum ijtimoiy tasavvurlar shakllanadi. Xususan, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy mavzularda erkaklar ishtiroki nisbatan yuqori bo'lishi, ta'lim, ijtimoiy himoya va oilaga oid mavzularda esa ayollar faolroq ko'rinish berishi gender rollarining institutsional taqsimotini bilvosita mustahkamlaydi.

Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 2019–2025-yillarda milliy telekanallar efirida gender mavzusiga bag'ishlangan ko'rsatuvlar soni va mavzuviy ko'lami sezilarli darajada kengaygan. Xususan, "O'zbekiston", "Yoshlar", "Mahalla" va Sevimli TV telekanallarida efirga uzatilgan "Munosabat", "Rostini ayting", "Minbar", "Yangi hayot", "Mikrofon sizniki" kabi tok-shou va ijtimoiy-ma'rifiy dasturlarda gender tengligi, ayollar huquqlari, tadbirkorlik, ta'lim va zo'ravonlik muammolari tizimli ravishda muhokama qilingani aniqlangan.

Media-sotsiologik tahlil natijalari televideniye gender diskursining shakllanishi davlat siyosati, redaksion siyosat, auditoriya kutilmalari va madaniy stereotiplar o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelishini ko'rsatdi. Natijada milliy televideniya gender diskursi "cheklovli erkinlik" modeli asosida shakllanayotgani, ya'ni gender masalasi efirida ochiq muhokama qilinayotgan bo'lsa-da, uning tanqidiy va tizimli tahlili cheklangan doirada qolayotgani ilmiy jihatdan asoslandi. Shu o'rinda televideniyaning tahririyat siyosati va institutsional muhiti ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Davlat telekanallarida gender masalasi ko'proq ijtimoiy siyosat, qonunchilik tashabbuslari va ma'rifiy yondashuv doirasida yoritilsa, xususiy telekanallarda auditoriya qiziqishiga mos formatlar orqali taqdim etiladi. Biroq har ikki holatda ham gender mavzusini ochiq inkor etish yoki davlat siyosatiga zid kontent yaratish kuzatilmaydi. Bu holat milliy televideniye makonida gender diskursining muayyan institutsional chegaralar doirasida shakllanayotganini ko'rsatadi. Demak 2019–2025 yillarda O'zbekiston milliy televideniyesida gender masalasining shakllanishi bir vaqtning o'zida davlat siyosati, jamiyatning madaniy xususiyatlari, auditoriya kutilmalari va media institutsiyalarning ichki qoidalari ta'sirida kechgan. Ushbu omillar yig'indisi televideniya gender diskursining nisbatan muvozanatli, ehtiyotkor va bosqichma-bosqich rivojlanuvchi xarakter kasb etishiga olib kelgan. Bu esa keyingi fasllarda davlat va xususiy telekanallar hamda teledasturlar janrlari kesimida gender reprezentatsiyasini qiyosiy tahlil qilish uchun nazariy va empirik asos yaratadi.

Bobning ikkinchi faslida davlat va xususiy telekanalarda gender reprezentatsiyasi qiyosiy tahlil qilinib, ularning diskursiv xususiyatlarida muhim farqlar mavjudligi aniqlangan. Davlat telekanalarida gender masalasi asosan normativ va institutsional diskurs doirasida yoritilib, ayollar ijtimoiy siyosat subyekti va davlat qo'llab-quvvatlash tizimining ishtirokchisi sifatida reprezentatsiya qilinishi aniqlangan. Xususan, "O'zbekiston" telekanalidagi "Munosabat" va "Yonma-yon" ko'rsatuvlarida ayollar kasbiy va ijtimoiy faol subyekt sifatida taqdim etilgan bo'lsa-da, bu obrazlar ko'pincha an'anaviy gender rollari bilan uyg'un holda berilgani aniqlangan. Xususiy telekanalar kontenti tahlili esa gender reprezentatsiyasi ko'proq emotsional, konfliktli va dramatik diskurs doirasida shakllanishini ko'rsatdi.

Shuningdek, davlat va xususiy telekanalarda gender reprezentatsiyasida an'anaviy rol modellarining saqlanib qolishi umumiy xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Ayollar ko'pincha oila, tarbiya, maishiy munosabatlar yoki ijtimoiy himoya kontekstida tasvirlansa, erkaklar qaror qabul qilish, boshqaruv va jamoatchilikda yetakchi rol bilan bog'lab ko'rsatiladi. Bu holat gender tengligi g'oyasining deklarativ darajada qo'llab-quvvatlanishiga qaramasdan, media diskursida patriarxal tasavvurlar hali ham muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi.

Biroq mazkur mushtarakliklar bilan bir qatorda davlat va xususiy telekanalar o'rtasidagi asosiy farqlar ham yaqqol kuzatiladi. Davlat telekanalarida gender reprezentatsiyasi, asosan, normativ va rasmiy diskurs doirasida shakllanadi. Gender masalasi davlat siyosati, qonunchilik tashabbuslari va ijtimoiy dasturlar bilan bog'lab yoritilib, ijobiy va barqaror tendensiya sifatida taqdim etiladi. Bunda gender tengsizlikning sabablari va institutsional to'siqlari kamdan-kam hollarda muammo sifatida qo'yiladi.

Xususiy telekanalarda esa gender reprezentatsiyasi interpretativ va emotsional xarakterga ega. Gender masalasi ko'pincha shaxsiy tajriba, oilaviy konflikt va maishiy vaziyatlar orqali ochib beriladi. Bu yondashuv auditoriya uchun mavzunu yaqinlashtirsa-da, uning tizimli ijtimoiy mohiyatini ikkinchi planga surib qo'yadi. Xususiy televideniya gender mavzusi ko'proq individual dramalar va sensatsion syujetlar doirasida qolib ketish xavfiga ega.


Asosiy farqlardan yana biri — diskursiv ramkalash usullarida namoyon bo'ladi. Davlat telekanalarida gender masalasi "me'yoriy" va ijtimoiy maqbul ramkalarda taqdim etilsa, xususiy telekanalarda u nisbatan erkin, biroq ko'p hollarda stereotipik ramkalarda ifodalanadi. Davlat televideniya gender diskursi barqarorlik va nazorat bilan bog'liq bo'lsa, xususiy televideniya u ko'proq ziddiyatli, parchalangan va auditoriya reaksiyasiga qarab o'zgaruvchan xarakter kasb etadi. Shu tariqa, 2019–2025 yillarda O'zbekiston milliy televideniyesida gender reprezentatsiyasi yagona, bir xil diskurs sifatida emas, balki institutsional sharoitlarga bog'liq holda turlicha shakllanuvchi ko'pqatlamli jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Davlat telekanalari gender masalasini normativ va barqaror ramkalarda mustahkamlasa, xususiy telekanalar uni interpretativ va emotsional maydonga olib chiqadi. Ushbu farq va mushtarakliklarni aniqlash keyingi bobda milliy televideniya gender diskursi qanday til, obraz va ramkalar orqali shakllanishini empirik tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi.

Bobning uchinchi faslida teledasturlar janrlari kesimida gender reprezentatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari empirik materiallar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, gender obrazlari televideniye janriga qarab turlicha diskursiv shakllarda namoyon bo'ladi. Axborot janrida ayollar ko'proq ijtimoiy himoya obyekti, erkaklar esa qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida reprezentatsiya qilinishi aniqlangan. Tok-shou janrida gender masalasi shaxsiy tajriba va individual dramalar orqali ifodalanib, gender tengsizligining tizimli sabablari ikkinchi planga surilishi kuzatilgan. Ijtimoiy-ma'rifiy dasturlarda ayol obrazi nisbatan faol, mustaqil va muvaffaqiyatli subyekt sifatida shakllanayotgani aniqlangan bo'lsa-da, ko'ngilochar va serial janrlarida gender stereotiplari ustuvorligi saqlanib qolayotgani empirik materiallar asosida isbotlandi. Xususan, teleserial va ko'ngilochar dasturlarda ayollar ko'proq maishiy va emotsional rollarda, erkaklar esa dominant va boshqaruvchi subyekt sifatida tasvirlanishi aniqlangan. Shuningdek, reyting ko'rsatkichlari tahlili serial va telenovellalar gender tasavvurlarini shakllantirishda eng ta'sirchan media formatlardan biri ekanini ko'rsatdi. Ushbu janrlar orqali gender stereotiplari ommaviy ongda legitimlashtirilishi va normallashtirilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Kontent-tahlil natijalariga ko'ra, "Milliy TV" telekanalining "Iqror" ruknida joylashtirilgan 1177 ta telenovella nomining 7,48 foizida "kelin" leksemi qo'llangan bo'lib, bu kelin obrazining dramatik konflikt markazida turgan asosiy gender subyekt sifatida reprezentatsiya qilinishini ko'rsatdi. Shuningdek, ayolga oid leksika umumiy nomlarning 26,51 foizida, erkakka oid leksika esa 15,12 foizida uchrashi aniqlandi. Salbiy konnotatsiyaga ega nomlar ulushi esa 8,07 foizni tashkil etdi (2.1-diagramma). Sevimli TV telekanalining "Taqdirlar" rukni doirasida tahlil qilingan 1532 ta telenovella nomining esa 52,81 foizida ayolga oid leksika, 35,44 foizida erkakka oid leksika, 19,06 foizida "kelin" so'zi ishtirok etgani aniqlandi. Salbiy konnotatsiyaga ega nomlar ulushi esa 20,82 foizni tashkil etdi. Ayniqsa, ayolga oid nomlarning 22,87 foizida salbiy mazmun mavjudligi ayol obrazining dramatisatsiya va konflikt markazida konstruktsiya qilinishini tasdiqladi.

2.1-diagramma

Milliy TV ("Iqror") va Sevimli TV ("Taqdirlar") telenovellalari nomlarida genderga oid leksik birliklarning kontent-tahlil natijalari (foiz hisobida)



Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikki telekanalda ham gender diskursi nom darajasidayoq shakllanib, ayol obrazining dramatik, muammoli va ijtimoiy jihatdan zaif subyekt sifatida konstruktsiya qilinish tendensiyasi ustuvor hisoblanadi. Ayniqsa, Sevimli TV telekanalidagi telenovellalarda ayolga oid leksika ulushining yuqoriligi (52,81 %) gender diskursining ayol shaxsiyatini dramatzatsiya qilish orqali shakllantirayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, telenovellalarda erkak obrazi nom darajasida kamroq ifodalansa-da, syujet rivojini belgilovchi dominant subyekt sifatida bilvosita konstruktsiya qilinishi aniqlandi. Natijada, har ikki jins obrazi ham ijtimoiy va kasbiy kontekstda emas, balki asosan oilaviy va maishiy konfliktlar doirasida reprezentatsiya qilinayotgani ilmiy jihatdan asoslandi. 2019–2025-yillarda O'zbekiston milliy televideniyesida gender diskursi davlat siyosati, media institutlari, auditoriya kutilmalari va janr xususiyatlari o'zaro ta'siri natijasida shakllanayotgan murakkab, ko'p qatlamli va ziddiyatli kommunikativ tizim ekanligi haqidagi ilmiy xulosa ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning **“Milliy televideniya gender diskursining empirik tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida milliy televideniye kontentida gender obrazlarining shakllanish mexanizmlari kritik diskurs tahlili (Critical Discourse Analysis) metodologiyasi asosida empirik materiallar yordamida o'rganildi, shuningdek, gender diskursini ishlab chiqaruvchi (telejurnalistlar) va uni qabul qiluvchi (auditoriya) subyektlar o'rtasidagi munosabatlar sotsiologik so'rovnomasida tahlil qilindi.

Bobning birinchi faslida milliy televideniye kontentida gender reprezentatsiyasining tematik va diskursiv xususiyatlari aniqlandi. Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy telekanallar efirida ayol obrazlari asosan an'anaviy gender rollari doirasida — ona, kelin, turmush o'rtog'i kabi ijtimoiy maqomlar orqali reprezentatsiya qilinadi. Xususan, televideniye dasturlarida ayollar mavzusi ko'proq oilaviy munosabatlar, maishiy konfliktlar va ijtimoiy himoya kontekstida yoritilishi, ularning ijtimoiy-siyosiy subyekt sifatidagi obrazi esa nisbatan kam shakllanishi aniqlandi.

Jahon televizion mediasi tajribasi gender reprezentatsiyasida muayyan tematik asimmetriya mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, xalqaro mediatashkilotlarning ochiq statistik ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tadqiqotlar televideniye efirida ayollar va erkaklar ishtiroki muayyan mavzular kesimida turlicha taqsimlanishini tasdiqlaydi. BBC, Ofcom, Al Jazeera va CNN kabi xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlari asosida, ayollar va erkaklarning televideniyaedagi chiqish yo'nalishlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida global televideniyaedagi mavzu toifalari bo'yicha gender ishtiroki tahlili o'tkazilgan. Uning natijalariga ko'ra, ayollar yumshoq mavzularda 70%, qattiq mavzularda 30%, erkaklar esa aksincha, qattiq mavzularda 70% va yumshoq mavzularda 30% ulushga ega ekani aniqlangan¹². Mazkur natijalardan bilishimiz mumkinki, televideniye kontentida gender reprezentatsiyasi tasodifiy emas, aksincha uzoq muddatlik ijtimoiy jarayonlar va institutsional omillar ta'sirida shakllanadigan tizimli hodisadir.

¹² BBC News (2021). The 50:50 Project: Tracking Gender Balance in News Content. <https://www.bbc.co.uk/5050>

Milliy televideniye kontentida gender masalalarining qanday shakllanishi, qanday ma'no doirasida taqdim etilishi va auditoriya ongida qanday ijtimoiy tasavvurlarni mustahkamlayotganini aniqlash uchun kritik diskurs tahlili (Critical Discourse Analysis — CDA) metodologiyasiga murojaat etishga to'g'ri keladi. CDA usuli til, tasvir va media matni ijtimoiy hokimiyat, mafkura va stereotiplar bilan bog'liq holda tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, ayniqsa gender, zo'ravonlik, kamsitish kabi mavzularni o'rganishda keng qo'llaniladi. Ushbu yondashuv N.Ferklof, T. van Deyk, R. Vodak ishlarida ishlab chiqilgan bo'lib, diskursni nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida talqin qiladi¹³.

Televideniye misolida CDA quyidagi darajalarda amalga oshiriladi:

- matn darajasida — boshlovchi nutqi, sarlavha (titr), kadr orti matni, intervyu savollari;
- diskursiv amaliyot darajasida — voqea qanday ramkalandani, qaysi nuqtai nazar ustuvor qo'yilgani;
- ijtimoiy amaliyot darajasida — ushbu kontent jamiyatlardagi gender munosabatlariga qanday ta'sir ko'rsatayotgani. Shu nuqtai nazardan, telejurnalist faqat axborot yetkazuvchi emas, balki ijtimoiy ma'no ishlab chiqaruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

(3.1-jadval)

Dastur nomi	Ekranda lavha davomida ko'rsatib turilgan tagsarlavha	Lavhadagi gender talablari yuzasidan yo'l qo'yilgan xatolik
“Yoshlar” telekanali “Yangi davr” informatsion dasturi	Titr berilmagan.	Boshlovchi matnidagi bolaning onasiga nisbatan negativ munosabat uyg'otuvchi, aybni unga yo'naltiruvchi matn. (<i>“turmushidan ajrashgan bir ayol internetda tanishib, gaplashib yurgan yigiti bilan janjallashib qolgan. Shu sabab 30 yoshli erkak jahl bilan kelib ayolning 3 yashar bolasiga bir necha bor pichoq tiqib ketgan”</i>)
“Zo'r TV” telekanali “Bu kun” informatsion dasturi	“3 yoshli bolaga 12 marta pichoq urgan vahshiy”	Ijtimoiy tarmoqda bolani tanuvchi shaxslar tomonidan qoldirilgan izohli videoning o'ta ta'sirchan qismidan foydalanilgan (bolaning o'ta tahqirlanib o'ldirilgani haqidagi ma'lumot aytilgan).
“Sevimli TV” telekanali “Zamon” informatsion dasturi	“3 yoshli bola vahshiylarcha o'ldirildi”	Onaning va bolaning haqiqiy foto va video tasvirlaridan foydalanilgan. Ular xiralashtirilgan bo'lsa-da, bir qarashda aniqlash, tanish mumkin.


Teletomoshabinlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari esa serial va telenovellalar milliy televideniya gender tasavvurlarini shakllantiruvchi asosiy media manbalardan biri ekanini ko'rsatdi. Respondentlarning aksariyati aynan

¹³ Fairclough N. *Discourse and Social Change*. Cambridge: Polity Press, 1992; van Dijk T.A. *Discourse and Power*. New York: Palgrave Macmillan, 2008; Wodak R., Meyer M. (eds.). *Methods of Critical Discourse Analysis*. London: SAGE, 2009.

ushbu janr mahsulotlarini muntazam tomosha qilishini bildirgan bo‘lib, bu gender stereotiplarining ommaviy ongda mustahkamlanishida telenovellalarning muhim rol o‘ynashini tasdiqladi.

3.1 - diagramma

So‘rovnoma – 2 natijalari



So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, auditoriya ongida ayol obrazining ko‘proq maishiy va oilaviy rollar doirasida qabul qilinishi kuzatiladi, bu esa televideniye diskursining gender stereotiplarini legitimlashtiruvchi ijtimoiy mexanizm sifatida faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, respondentlarning bir qismi televideniye kontentidagi gender obrazlariga nisbatan tanqidiy munosabat bildirgani gender diskursining transformatsiya jarayoni boshlanganini ham ko‘rsatadi.

Bobning ikkinchi faslida gender mavzusini yoritishda telejurnalstning diskursiv roli va kasbiy mas‘uliyati tahlil qilindi. Kritik diskurs tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki, jurnalist tomonidan tanlangan lingvistik vositalar, sarlavha konstruktsiyalari va vizual elementlar gender stereotiplarini shakllantirish va legitimlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, gender zo‘ravonlik bilan bog‘liq materiallarda jabrlanuvchini bilvosita ayblovchi diskursiv strategiyalar, jinoyat sabablarini maishiy omillar bilan izohlash va sensatsion ifodalardan foydalanish gender tengligi tamoyillariga zid kommunikativ amaliyot sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Gender zo‘ravonligi bilan bog‘liq jinoyatlar va favqulodda telekanallarning axborot dasturlarida ochiq yoritilmoqda hamda jamoatchilik xabardor etilmoqda. Biroq bu jarayon har doim ham professional standartlar asosida amalga oshirilayotgani kuzatilmaydi. 2020–2025 yillarda xotin-qizlar o‘limi, ularga nisbatan zo‘ravonlik, erta turmushga berish bilan bog‘liq holatlar televideniye efirida tez-tez tilga olinib boshladi.

Papa, Kuros va Lambe fikricha¹⁴, ko‘p hollarda OAV erkak jinoyatchining ruhiy holatiga urg‘u berish maqsadida jabrlanuvchi ayolni ayblashga yo‘l qo‘yadi. Shu bilan birga, femitsid hodisalari va ularning gender bilan bog‘liq xususiyatlari, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va oiladagi zo‘ravonlik shakllari bilan bog‘liqligi

¹⁴ Papa, V., Kouros, T., & Lambe, A. (2024). "The victim lived an intense life": media (mis)representations of femicide crimes in the Republic of Cyprus. *Feminist Media Studies*.

keng qamrovda tahlil qilinmaydi. Mediamateriallar ko‘pincha jinoyatchi nuqtai nazaridan yoritiladi, jabrlanuvchi ayolning holati va huquqiy maqomi yetarli darajada ko‘rsatilmaydi. Xususan, jabrlanuvchining mustaqil qaror qabul qilish istagi yoki ajrashish holatlari jinoyatchining “asabiylashish sababi” sifatida talqin etilishi mumkin. Bu esa OAV orqali ayollarga nisbatan shakllanadigan stereotipik qarashlarni mustahkamlab, zo‘ravonlikni oqlash yoki unga murossalikni targ‘ib qilish xavfini keltirishi mumkin.

Tadqiqotda femitsidning OAVda qanday ramkalarda yoritilishi aniqlangan:

- umumiy joy ramkasi;
- alohida hodisa ramkasi;
- jinoiy adliya tizimini ayblaydigan ramka;
- jabrlanuvchini ayblovchi ramka;
- jabrlanuvchi va jinoyatchi hayotidagi inqirozga urg‘u beruvchi ramka;
- kengroq ijtimoiy muammo sifatida oiladagi zo‘ravonlikka e‘tibor qaratish orqali ayol o‘limini minimallashtiruvchi ramka.

Ushbu ramkalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ayblash uslublari aniqlangan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ayblash jabrlanuvchini salbiy ta‘riflash (masalan, yomon ona yoki ishsiz deb atamoq), xiyonatda ayblash yoki rasmiylar bilan hamkorlik qilmaslikni ta‘kidlashni o‘z ichiga oladi. Bilvosita ayblash esa tajovuzkorni ijobiy yoritish, uning moliyaviy, sog‘liq yoki hissiy muammolarini sabab sifatida ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Maqola mualliflari jurnalistlarning jinoyatlarni yoritishdagi pozitsiyalari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta‘kidlaydi. Shu munosabatdan, mazkur tadqiqot doirasida milliy telekanallardagi jinoyatlar haqidagi ko‘rsatuvlar tahlil qilindi. Ushbu ko‘rsatuvlar orasida “O‘zbekiston” TV — “Bir jinoyat izidan”, “Qismat”; “Yoshlar” TV — “Ikki yo‘l”; “Mahalla” TV — “Tazarru”; “Milliy TV” — “O‘tkir tergov”, “Millar”; “Sevimli TV” — “Qafasda” kabi dasturlar kuzatildi.

O‘zbekiston milliy telekanallarida, jinoyatlar haqidagi ko‘rsatuvlar asosan tajribali ijodkorlar va sohadagi mutaxassislar ishtirokida tayyorlanadi. Mualliflar va boshlovchilar asosan o‘rta yoshdagi, TV sohasida tajribaga ega xodimlar bo‘lib, intervyular uchun ichki ishlar xodimlari, sudya, prokuror, advokat va voqea guvohlari taklif qilinadi. Ko‘rsatuvlarda jinoyatni amalga oshirgan shaxsning o‘z nuqtai nazaridan bayon qilish uslubi (“Qismat”, “Qafasda”, “Tazarru”) yoki aktyorlar ishtirokida sahnalashtirish (“Bir jinoyat izidan”, “O‘tkir tergov”, “Voqea joyi”) qo‘llaniladi. Rejissyor va jurnalist mahorati bu jarayonda muhim: voqea bayoni, ovoz va tasvir, montaj, kadr orti matn, monolog, dialoglar, dinamika va vizual ta‘sirlar, rasmiy va ommabop uslub o‘rtasida muvozanat saqlash kabi jihatlar ko‘rsatuvning professionalligini belgilaydi. Shu bilan birga, jinoyat haqidagi telemahsulot tayyorlashda asosiy maqsad — xolis, haqqoniy va insoniy nuqtai nazardan material yaratishdir. Jurnalistlar ayollar va xotin-qizlar mavzusini yoritganda jamiyatda shakllangan stereotiplardan saqlanishi lozim. Masalan, “sayoq yursang, tayoq yeysan”, “bemahalda yo‘lga chiqqan ayol” kabi iboralar jabrlanuvchini bilvosita ayblashga xizmat qilishi mumkin. Ayollarga nisbatan

jinoyatlar haqidagi ko'rsatuvlarda umumiy xususiyat — didaktiklik va tomoshabinni xulosa chiqarishga chorlashdir. Shu bilan birga, ko'p holatlarda ayollarning ijtimoiy rollari ham targ'ib qilinadi: qahramonning xatolari tufayli boshqa ayollarga ta'sir ko'rsatish, uy bekasi sifatidagi rolni ideallashtirish kabi. "O'tkir tergov" ko'rsatuvida jinoyat sahnalari, mutaxassislar intervyulari va boshlovchi tafsilotlari asosida bayon qilinadi. Emotsional lavhalar ketma-ketligi tomoshabin diqqatini chalg'itish bilan birga, jabrdiydalarga nisbatan hurmatni saqlash uchun zarur choralari ko'rilgan holatlar ham bor. Masalan, ko'rsatuvning marhuma aktrisa Gavhar Sharipova haqidagi tayyorlangan soni diqqatga sazovor (11-dekabr, 2023-yil).

Milliy telekanalining "Millar" ko'rsatuvida genderga asoslangan jinoyatlarni yoritish uslubi jurnalistik qarorlar orqali qanday ma'no yaratilayotganini aniq ko'rsatadi. Ayniqsa, 12.02.2025 yilgi efirda berilgan lavha bu borada muhim kuzatuv imkonini beradi. Ekranida butun lavha davomida o'zgarmay turgan "Eri kaltaklagan ayol vafot etdi" titri voqeani jinoyat sifatida emas, balki oilaviy fojia sifatida ramkalaydi. Titrdagi erkak harakati aytilsa-da, keyingi vizual va matnii aksentlar voqeaning ijtimoiy-huquqiy mohiyatini ochishdan ko'ra, hissiy qabulga yo'naltirilgan. Bu esa axborot janrida neytrallik talablarining susayishiga olib keladi.

Bobning uchinchi faslida milliy telekanallarning axborot va kriminal dasturlarida genderga asoslangan jinoyatlarning yoritilish uslubi kritik diskurs tahlili asosida o'rganildi. Tahlil natijalari ayrim materiallarda jabrlanuvchini bilvosita ayblash, jinoyatni maishiy konflikt sifatida talqin qilish va sensatsion ifodalardan foydalanish holatlari mavjudligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, gender zo'ravonlikni yoritishda huquqiy va ijtimoiy kontekstni to'liq aks ettirish, lingvistik va vizual vositalarni gender sezuvchanlik tamoyillari asosida tanlash hamda jurnalistik neytrallikni ta'minlash gender stereotiplarining media orqali mustahkamlanishini cheklovchi muhim kommunikativ omil ekanligi asoslandi. Natijada telejurnalist gender diskursini shakllantirishda ijtimoiy mas'uliyatga ega diskursiv subyekt sifatida faoliyat yuritishi haqidagi empirik xulosa ishlab chiqildi.

XULOSA

Mazkur dissertatsiya doirasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Gender tengligi masalasi har qancha umuminsoniy maqsadlarga xizmat qilmasin va xalqaro hamkorlik tamoyillari doirasida ko'rib chiqilmasin, uning amaliy ifodasi har bir jamiyatda milliy, madaniy, diniy va tarixiy omillar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, televideniye orqali gender tengligini targ'ib qilish jarayonida milliy an'analar, ma'naviy meros va jamiyatda shakllangan qadriyatlar inobatga olinmasa, mazkur tushuncha omma ongida faqat rasmiy va akademik atama sifatida qolib ketishi mumkin. Telejurnalistikaning vazifasi esa gender tengligini milliy qadriyatlarga zid qo'ymasdan, balki ular bilan uyg'un holda jamoatchilikka yetkazishdan iborat.

2. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy va xususiy telekanallarda rahbarlik lavozimlarida erkaklar ustunlik qiladi. Efirda ayollar ishtiroki nisbatan

yuqori bo'lsa-da, boshqaruv darajasida gender muvozanati ta'minlanmagan. Televideniye xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ayollarning rahbarlik lavozimlarida kamligi, asosan, "munosib kadrlar yetishmasligi" bilan izohlanadi. Bu esa televideniye sohasida ayol mutaxassislarni rahbarlikka tayyorlash va ularning va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli mexanizmlarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

3. Telejurnalist faoliyatida gender savodxonlik jurnalistikaning umumiy professional standartlari qatorida qaralishi lozim. Axborot tayyorlash jarayonida qo'llanilayotgan so'z, ibora, tasvir va vizual obrazlar gender stereotiplarini mustahkamlamasligi, aksincha xolis va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishi zarur. Tadqiqotda aniqlangan holatlar telejurnalistlar malakasini oshirish tizimiga gender sezuvchanlik talablarini kiritish zarurligini ko'rsatadi.

4. Gender masalalarining televideniya aks etishi janrlar kesimida keskin farqlanadi. Axborot dasturlar va tok-shoularda gender tengligi masalalari rasmiy va deklarativ ruhda yoritilayotgan bir paytda, reyting yuqori bo'lgan seriallar, telenovellalar va ko'ngilochar kontentda an'anaviy gender rollari ustuvor saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, "praym taym" davrida namoyish etiladigan badiiy mahsulotlar auditoriya tasavvurini shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

5. Mediakontent tahlili, xususan, bir xil jinoyat hodisasining turli telekanallarda yoritilishi misolida o'tkazilgan tanqidiy diskurs tahlili (CDA) natijalari shuni ko'rsatdiki, ayrim hollarda jinoyat sabablari gender stereotiplar asosida talqin qilinib, jabrlanuvchi ayol bilvosita aybdor sifatida ko'rsatiladi. Bu esa jamiyatda zo'ravonlikni oqlash yoki normallashtirish xavfini kuchaytiradi.

6. Teleserial va telenovellalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ekranlarda ayol timsoli asosan maishiy makon, oilaviy nizolar va an'anaviy rollar doirasida namoyon bo'lmoqda. Bunday talqin zamonaviy o'zbek ayolining ijtimoiy faol, mustaqil va kasbiy qiyofasini to'liq aks ettira olmayapti. Natijada, teletomoshabinlarda ekrandagi ayol obraziga nisbatan qoniqmaslik kayfiyati shakllanmoqda.

7. Davlat va xususiy telekanallar gender targ'ibotida turlicha ta'sir kuchiga ega. Davlat telekanallari rasmiy axborot va huquqiy targ'ibotni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lsa, xususiy telekanallar ommaviy janrlar orqali jamoatchilik fikriga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, aynan serial va novellalar orqali gender stereotiplarini kamaytirish kelgusida keng qamrovli ijtimoiy ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

8. Gender zo'ravonlik sahnalari aks etishi mumkin bo'lgan mediamahsulotlarda maxsus ogohlantiruvchi belgilarni qo'llash auditoriyaning huquqiy va gender savodxonligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bunday belgilar zo'ravonlikni oqlash emas, balki uning jinoiy ekanini eslatuvchi profilaktik vosita sifatida qaralishi lozim.

9. Umuman olganda, milliy televideniya gender masalalariga oid yagona ilmiy asoslangan konsepsiyaning yetishmasligi metodologik va amaliy kamchiliklarga olib kelmoqda. Shu bois, televideniya faoliyati uchun genderga oid

konseptual yondashuvni ishlab chiqish, uni mediatadqiqotlar va amaliyot bilan uyg'un holda joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

birinchidan, milliy televideniya gender sezgir televideniye tamoyillariga asoslangan yagona konsepsiyani ishlab chiqish, uni telekanallar tahrir siyosati va standartlari tarkibiga metodik hujjat sifatida joriy etish hamda mazkur konsepsiya asosida mediakontentni muntazam ilmiy monitoring qilish va uning natijalariga tayanib media amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish;

ikkinchidan, telejurnalistlar malakasini oshirish tizimiga gender savodxonlik, gender sezgir tildan foydalanish va gender zo'ravonlik holatlarini yoritishning xalqaro standartlariga oid maxsus o'quv kurslarini kiritish;

uchinchidan, milliy telekanallarda rahbarlik lavozimlari uchun ayol mutaxassislarni tayyorlash, ularning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish va qaror qabul qilish jarayonlarida gender muvozanatini ta'minlashga qaratilgan institutsional mexanizmlarni joriy etish;

to'rtinchidan, teleserial va telenovellalar ishlab chiqarish jarayonida milliy va xalqaro ekspertlar hamda ssenariynavislar hamkorligi asosida gender ekspertizasini joriy etish va gender jihatdan muvozanatli obrazlar tizimini shakllantirish;

beshinchidan, gender zo'ravonlik sahnalari mavjud bo'lgan telemahsulotlarni efirga uzatishda ekranda "genderga asoslangan zo'ravonlik qonun bilan ta'qib qilinadi" mazmunidagi statik ogohlantiruvchi belgilarni joriy etish orqali auditoriyaning huquqiy va gender savodxonligini oshirish;

oltinchidan, axborot dasturlari va tok-shoularda gender masalalarini yoritishda jabrlanuvchini ayblovchi til va ramkalardan voz kechish, gender muammolarini ijtimoiy muammo sifatida talqin qilishga qaratilgan tahririyat standartlarini ishlab chiqish;

yettinchidan, O'zbekiston televideniyesi hamda raqamli media platformalarida gender reprezentatsiyasi va gender diskursining shakllanish xususiyatlarini xalqaro telekanallar kontenti bilan qiyosiy tahlil qilish hamda bu orqali milliy media modelning o'ziga xos jihatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12 Fil.03.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ ЖУРНАЛИСТИКИ И
МАССОВЫХ КОММУНИКАЦИЙ УЗБЕКИСТАНА**

**УНИВЕРСИТЕТ ЖУРНАЛИСТИКИ И МАССОВЫХ
КОММУНИКАЦИЙ УЗБЕКИСТАНА**

КАРИМОВА ГУЛНОЗА ДАВРОНОВНА

**ДИСКУРСИВНЫЙ АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО
ТЕЛЕВИДЕНИЯ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ**

10.00.09 – Журналистика (филологические науки)

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/Fil3639.

Диссертация выполнена на базе Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский резюме) размещён на веб-странице Научного совета по адресу (www.uzjoku.uz) и информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Акбаров Хамидулла Илясович доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Муратова Нозима Фахритдиновна доктор филологических наук, доцент Боймирзаева Саодат Ураковна доктор филологических наук
Ведущая организация:	Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Защита диссертации состоится «___» _____ 2026 года в ___ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12 Fil.03.01 при Университете журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана. (Адрес: 100147, город Ташкент, Марказ-5, дом 88. Тел.: (99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана. (Адрес: 100147, город Ташкент, Марказ-5, дом 88. Тел.: (99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2026 года.

(Протокол рассылки № ___ от «___» _____ 2026 года).

Шерзодхон Кудратхужа
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор политических наук (DSc), профессор

Алижон Сафаров
Научный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор филологических наук (DSc), доцент

Нозима Муратова
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению учёных степеней,
доктор филологических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях глобализации обеспечение гендерного равенства, защита прав и законных интересов женщин, а также повышение их социальной активности приобретают актуальное значение для развития современного общества. Начиная со второй половины XX века гендерные отношения стали рассматриваться в ряде научных исследований как важная социальная проблема, тесно связанная с процессами общественного развития, социальной справедливости и устойчивого развития. В частности, в области медиаисследований систематизация теоретических подходов к анализу гендерного дискурса, критическое изучение гендерных стереотипов и дискурсивных отклонений в телевизионном контенте, выявление журналистских ошибок и профессиональных недостатков при освещении случаев гендерно обусловленного насилия, а также исследование того, каким образом гендерная проблематика представлена в медиапространстве и какое влияние она оказывает на общественное сознание аудитории, рассматриваются как одно из актуальных научных направлений, развивающихся в международной исследовательской практике.

В современных научных исследованиях значительное внимание уделяется изучению формирования и развития гендерного дискурса в средствах массовой информации, влияния медиаконтента на формирование социальных стереотипов и системы ценностей, процессов формирования и воспроизводства гендерных стереотипов в медиа, а также формированию общественных представлений о гендерном равенстве под воздействием медиа. Наряду с этим предметом научного анализа становится и освещение в медийном пространстве случаев гендерно обусловленного насилия. В этой связи анализ того, каким образом гендерный дискурс формируется и проявляется в средствах массовой коммуникации, в частности в телевизионном контенте, имеет важное значение для понимания общественных представлений о гендерном равенстве, а также для научного обоснования механизмов освещения данной проблематики в медиапространстве.

В Узбекистане обеспечение гендерного равенства, повышение социально-политической активности женщин в обществе и защита их прав и интересов рассматриваются как одно из приоритетных направлений государственной политики. «Мы создали совершенно новую систему обеспечения прав и интересов женщин, решения их проблем. При принятии всех законов, указов и постановлений были внедрены правовые механизмы по гендерному вопросу. Теперь ни один закон не будет принят без оценки его

влияния на права и интересы женщин»¹. С этой точки зрения важно научно изучить, как освещаются гендерные вопросы в национальном медиапространстве, особенности формирования гендерных образов на телевидении и влияние медиадискурса на принципы гендерного равенства.

Данное исследование в определенной степени служит обеспечению реализации целей и задач, указанных в Законах Республики Узбекистан «О защите женщин от притеснения и насилия,» «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин,» «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с дальнейшим совершенствованием системы надежной защиты прав, свобод и законных интересов женщин и детей,» а также «О средствах массовой информации,» «О гарантиях и свободе доступа к информации,» «О принципах и гарантиях свободы информации,» в Указе Президента Республики Узбекистан «О дополнительных организационно-правовых мерах по усилению защиты прав женщин и детей и предупреждению случаев притеснения и насилия в отношении них,» а также в Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан No 192 «Об утверждении Положения о порядке проведения гендерно-правовой экспертизы нормативно-правовых актов и их проектов» и No 4 «О мерах по совершенствованию системы защиты женщин от притеснения и насилия».

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с первым приоритетным направлением развития науки и техники республики: *«Формирование и пути осуществления системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».*

Степень изученности проблемы. В Узбекистане ряд исследований, посвящённых отражению гендерного равенства в медиа, а также истории и специфическим особенностям телевидения, проведён такими учёными, как Ё. Маматова, С. Сулайманова, Н. Косимова, Н. Муратова, Г. Зокирова, Х. Акбаров, А. Каримов, П. Алламбергенова, Ю. Артикова, И. Рахматуллаева, Ф. Файзиева, Т. Ахмедов, Ю. Зохидова, З. Абдуллаева².

¹ Мирзиёев Ш.М. Выступление, посвященное Международному женскому дню // president.uz, 06.03.2026. - <https://president.uz/ru/lists/view/9002>

² Mamatova Y., Sulaymanova S. Oltin o'rtalik sari: O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida gender munosabatlari. –Т.: Extremum press, 2016. – 80 б. Қосимова Н., Алимова Н. Гендер ва медиа. –Т.: Баёз, 2022.136 б. Муратова Н., Элтон Гризл, Мирзахмедова Д. Журналистикада медиа ва ахборот саводхонлиги.– Т.: Бактрия пресс, 2019. – 112 б. Закирова Г. Ўзбекистон матбуотида хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллиги масалаларининг ёритилиши (босма ва интернет нашрлари 2014-2020 йй.).фил.фан.фал.док.(PhD)...дисс. –Т.,2020. Акбаров Х.Кино-теледраматургия: назария ва амалиёт. –Т.: Илм зиё, 2006; Акбаров Х. Кино-телережиссура монтаж. –Т.: Илм зиё, 2007; Каримов А. Рекреативлик – замонавий журналистиканинг глобал қонуниятлари сифатида: миллий ва халқаро тажриба. Фил. фан. док (DSc)...дисс. – Т., 2022. – 230 б.; Файзиева Ф.Ўзбекистон бадиий телевидениесининг шаклланиши (1956-2000 йй). Санъат.фан.ном.дисс... –Т., 2009; Ахмедов Т. Ўзбекистонда телевидениенинг ривожланиш жараёни ва унинг аҳоли ижтимоий-маданий ҳаётидаги ўрни (1991-2016 йй). Тар.фан.фалс.док (PhD) дисс... –Т.: ЖДПИ, 2019; Рахматуллаева И. Ўзбекистон телевидениесига ёшлар кўрсатувлари (бадиий маҳорат

В научной литературе стран СНГ также встречаются исследования, в которых гендерная проблематика рассматривается в связи со средствами массовой информации, в частности с телевидением. В данных работах анализируются медиапродукты различных жанров и форматов, а гендерные вопросы исследуются на основе междисциплинарного подхода. Подобные исследования представлены в трудах таких авторов, как Рыгина, Маевская, Борзова, О. Шемякин³.

В зарубежных научных исследованиях проблемы гендера, рассматриваемые в контексте теоретических подходов к интерпретации гендера как социальной конструкции, освещения гендерной проблематики в средствах массовой информации, формирования гендерных образов и стереотипов, а также в рамках подхода критического дискурс-анализа, изучались в работах таких исследователей, как J. Butler, R. Connell, J. Scott, N. Fairclough, T. van Dijk, R. Wodak, Xiaodong Feng, Yu-Hao Lee, Allison Master, Manuela Tomai, Yorgos C. Zotos, Karin Romero Ruiz, Jing Lu, Tong Zhang, Karl Kaser, Ronald Inglehart, Carmen Diana Deere, Michelle Lokot, Husayin Haydari, Nurzihan Hassim, F. Pınar Acar⁴.

